

**TURLI TIZIMLI TILLARDA SO‘Z YASALISHINING UMUMIY VA
XUSUSIY MASALALARI**
**GENERAL AND SPECIAL ISSUES OF WORD FORMATION IN
DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES**
**ОБЩИЕ И СПЕЦИАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В
РАЗНЫХ СИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ**

Abduraximova Feruza Boxadirovna

FarDU o‘qituvchi

feruz.abdurakhimova818@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli tizimli tillarda so‘z yasalishining umumiy va xususiy masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. So‘z yasalishi, affiksatsiya, prefiks, agglyutinatsiya

Abstract. This article covers general and specific issues of word formation in different systematic languages.

Keywords. Word formation, affixation, prefix, agglutination

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие и частные вопросы словообразования в разных систематических языках.

Ключевые слова. Словообразование, аффиксация, приставка, агглютинация

So‘z yasalishi – tildagi mavjud so‘zlar va yasovchi vositalar negizida yangi so‘z hosil qilishga aytiladi.¹ So‘z yasalishi hodisasi universal jarayon bo‘lib tillar turli oilalarga mansub bo‘lgan taqdirda ham barcha tillarda mavjud bo‘lgan jarayondir.

Ingliz tili xind-ovrupa tillar oilasiga mansub bo‘lganligi va o‘zbek tili turkiy tillar oilasining o‘zbek uyg‘ur tili gruppasiga mansub. Qardosh bo‘lgan tillarni va genetik jihatdan bir-biridan uzoq bo‘lgan tillarni qiyoslab o‘rganish hozirgacha dolzarb hisoblanadi. Ammo qardosh bo‘la turib, bir-biridan struktura jihatidan farq qiluvchi tillar ham bor, qardosh bo‘lmay boshqa til oilalariga mansub tillarni struktural o‘xshashlik jihatlari ham bo‘lishi mumkin. Bunday tadqiqotlar qiyosiy

¹ Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Т.:ЎзДЖТУ.2008.119 б

tipologik analiz qilish orqali til sistemasidagi o‘xshash va farqli jixatlar orqali aniqlanadi. Bunday tadqiqotlar natijasi nafaqat tilshunoslik uchun balki tillarni qiyoslab o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tilini o‘rganish murakkab lingvopsixologik hodisadir. Chet tilini o‘rganish jarayonida o‘rganuvchi ongida ona tili va horijiy til sistemalari to‘qnashadi. O‘rganuvchining ona tilisi yangi til sistemasini o‘zlashtirishni osonlashtiradi yoki uning yo‘liga to‘siq bo‘ladi. Tilshunoslikda yangi tilni o‘zlashtirish “fislitatsiya” bo‘lsa, o‘rganish yo‘lidagi to‘siq “interferensiya” deb nomlanadi.

M.T.Irisqulov so‘z yasashini affiksatsiya, o‘z ichida prefiks, postfiks va infiks yordamida so‘z yasashga ajratadi.

Kompozitsiya usulida – ikki yoki undan ortiq so‘zlarni bir-biriga qo‘shish yo‘li bilan yangi so‘z yasash. M.T.Irisqulov bu usulda so‘z yasashni sintaktik usulda so‘z yasash turi deb nomlaydi.²

Konversiya orqali so‘z yasash ba’zi tillarda uchraydi. Masalan, ingliz va fransuz tillarida bu usul keng qo‘llansa, o‘zbek tilida kam uchraydi. Konversiya usuli bilan so‘z yasalganda, so‘zlar bir so‘z turkumidan ikkinchisiga o‘tadi ko‘proq ot fe’lga, fe’l esa otga o‘tadi.

Masalan, We shall *answer* positively. (fe’l)

The *answer* was positive. (ot)

O‘zbek va rus tilida bu hodisalar boshqacha hususiyatlarga ega. Agar ingliz tilida so‘z bir so‘z turkumidan ikkinchi so‘z turkumiga ko‘chishi gapda so‘zlarning o‘rni almashishi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek va rus tilida esa bu hodisa morfologik vositalar ko‘magida amalga oshiriladi, ya’ni so‘z qaysi so‘z turkumiga ko‘chayotgan bo‘lsa, ana shu so‘z turkumining grammatik kategoriyalarini qabul qiladi.³

Tilshunos O.Azizov “Tilshunoslikka kirish” asarida dunyo tillari mustaqil ma’noli so‘zlarning tizimi jihatidan ikki katta guruhga ajratiladi. Bu ikki guruhdagi tillar so‘zlarning ikki qismga, ya’ni o‘zak-negiz va affiksga ajralishi jihatidan ma’lum

² Ирисқулов М.Т. кўрсатилган асар 119 б.

³ Ирисқулов М.Т. кўрсатилган асар. 120 б.

farqlarga ega. Birinchi turga turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan tillar Osiyo va Afrikada yashovchi ko‘pgina xalqlarning tillari kiritilib, ularning ahamiyatga molik tomoni, gapda so‘zlarning sintaktik baholanishlarini ifodalovchi affikslar so‘z o‘zagini (negizini) o‘zgartirmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilib ketaveradi, affikslarning andaza shakllari ham o‘zgarmaydi. Bu hususiyat agglyutinativ tillar guruhiga kiruvchi tillarga xosdir. Bir xil grammatik ma’noning, bir qolipdagi affikslarning o‘zgarmaydigan negiz yoki o‘zakka qo‘shilib kelishi, agglyutinatsiya deb ataladi.⁴

Agglyutinatsiya (lot. Agglutinare - yopishtirmoq) – so‘z yasalihi asosi o‘zgarmagan holda yangi so‘z yoki so‘z shakli hosil bo‘lishidir. Bunda har bir affiks ma’lum bir ma’no, vazifa bilan qatnashadi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida yasama so‘zlar va so‘z shakllari asosiga ma’lum izchillik bilan affikslar qo‘shish orqali hosil qilinadi va bu affikslarning har biri o‘z ma’nosi bilan qatnashadi.⁵

Masalan, *paxta-kor-lar-imiz-ga*

O‘zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo‘lganligi uchun affikslar so‘z o‘zagi bilan zich bog‘lanmasdan so‘zga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilib keladi.

Turkiy tillar morfologik tipologiyasiga ko‘ra agglyutinativ tillardir. Bunda so‘zning morfologik tarkibi o‘zak va qo‘shimcha morfemalardan iborat bo‘ladi.

Barcha agglyutinativ tizimdagi tillarda so‘zning asosi barqaror tovushlar kompleksiga ega bo‘lgan semantik birliklar bo‘lib, ular narsa va hodisa, voqea va hodisa, belgi va hususiyat, harakat va holat, miqdor kabi tushunchalar hamda ular orasidagi munosabatni ifodalaydi. Qo‘shimchalar fonetik jihatdan asos tarkibidagi tovushlarning sifatiga ko‘ra barqaror tovushlar tarkibiga ega emas, o‘zgaruvchan, ko‘p variantli bo‘lib, o‘zi alohida semantik mustaqilligiga ega emas. Har qanday qo‘shimchani asos bilan birgagina konkretlashadi.⁶

⁴ Азизов О. Тилшуносликка кириш.-Т.:Ўқитувчи.1996й.100-101б.

⁵ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, .9 б.

⁶ Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси.//ўқув услубий қўлланма.Т.:.-2008.79 б

Turkiy tillarda soʻzning tarkibi osonlikcha oʻzak va qoʻshimcha morfemalarga ajratiladi:

Gul+zor gul+la gul+ga

Turkiy tillarda soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilishining hususiyatlari tahlili natijasida shunday hulosalar keltirish mumkin:

- 1) Turkiy tillarda soʻz negizlariga turli affikslar qoʻshilganda soʻzning asosi deyarli oʻzgarmaydi.
- 2) Turkiy tillardagi affikslar bir maʼnoli. –ga joʻnalish, -lar koʻplik qoʻshimchasi.
- 3) Turkiy tillardagi affikslar standart, hamma soʻzlarga qoʻshilishida bir xil maqomga ega boʻladi.
- 4) Turkiy tillarda soʻzning asosi va qoʻshimchalar oʻrtasidagi birikish oddiy birin-ketin qoʻshish orqali amalga oshiriladi.⁷

Yuqorida koʻrsatilgan hususiyatlar tufayli turkiy tillarda soʻzlarni tarkibini oʻzak va morfemalarga ajratish oson boʻladi.

Baʼzan soʻzlarning asos qismi va affiks oʻrtasidagi chegaralarni aniqlash qiyin boʻladi. Bunda soʻzni soddalashganini kuzatishimiz mumkin. Tilning bunday qurilish hususiyatlari agglyutinativ tillar guruhiga xos boʻladi.

Ikkinchi guruh hind-yevropa tillari: hind, eron, ingliz, nemis, rus, ispan, italyan tillari kabilar kiradi. Bu guruhdagi tillarning eng muhim tomoni, ularda grammatik maʼno ifodalovchi affikslar soʻz oʻzagi bilan juda zich birikadi. Shuning uchun soʻzlarning oʻzgaruvchi qismi (affikslar) koʻp grammatik maʼnoga ega. Oʻzak-negiz bilan affikslarning shunday zich qoʻshilib, birikib ketishi fuziya deb ataladi.⁸

Fuziya – (frans. Fusion-qoʻshilish, tutashish). Fonema tarkibining oʻzgarishi (yonma-yon fonemalarning singishuvi) natijasida fonemalar chegarasining noaniqlashuvi, bir fonemaning har ikki morfema tarkibi uchun umumiy boʻlib qolishi.⁹

⁷ Абдурасулов Ё. Кўрсатилган асар.82 б.

⁸ Азизов О.Тилшуносликка кириш.-Т.:Ўқитувчи.1996й.100-101б.

⁹ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, .126 б.

Turkiy tillardagi agglyutinatsiya tabiatiga aniq bahoni A.N. Kononov bergan. U turkiy tillardagi affiksial soʻz yasash usullarini 3 ga boʻladi:

- 1) Maʼnosi bir xil suffikslarning qoʻshilishi;
- 2) Maʼnosi har xil affikslarning birikishi;
- 3) Soʻz elementlarining qayta boʻlinishi;

Shu asosda olim agglyutinatsiya jarayonini agglyutinativ fleksiya deb qaraydi. Shu bilan birga, soʻzning tarkibiy elementlarini ajratishda maxsus etimologik tahlilning zarurligini qayd etadi.¹⁰

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. -T.:Oʻqituvchi.1996y.100-101b.
2. Abdurasulov Yo. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. oʻquv uslubiy qoʻllanma.T.: -2008.79 b
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T.:OʻzDJTU.2008.119 b
4. Kononov A.N. O prirode tyurkskoy agglyutinatsii. –VYa.1976, №4// Poʻlatov
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.T.:Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti,126 b.
6. I.Tuxtasinova O. Tillarni tipologik oʻrganish. Toshkent.-2009.52.b.

¹⁰ Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации. –ВЯ.1976, №4// Пулатов И.Тухтасинова О. Тилларни типологик ўрганиш. Тошкент.-2009.52.б.